



AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING MAMLAKAT
IQTISODIYOTIGA TA`SIRI

Saidazimova Marjona Asrorovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot iqtisodiyotni rivojlantirishda axborot texnologiyalarining hal qiluvchi rolini tahlil qiladi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi iqtisodiy o`shishga, yangi ish o`rinlari yaratilishiga va turli sohalarda raqamlashtirish jarayonining kengayishiga xizmat qilishi yoritib berilgan.

Kalit so`zlar: Axborot texnologiyalari, raqamli iqtisodiyot, iqtisodiy o`shish, IT xizmatlari, innovatsiya, bandlik, raqamlashtirish

Аннотация: В данном исследовании анализируется решающая роль информационных технологий в экономическом развитии. Подчеркивается, что развитие информационных технологий способствует экономическому росту, созданию новых рабочих мест и расширению процесса цифровизации в различных секторах.

Ключевые слова: информационные технологии, цифровая экономика, экономический рост, ИТ-услуги, инновации, занятость, цифровизация

Absract: This study analyzes the crucial role of information technologies in economic development. It is highlighted that the development of information technologies contributes to economic growth, the creation of new jobs, and the expansion of the digitalization process in various sectors.

Keywords: Information technologies, digital economy, economic growth, IT services, innovation, employment, digitalization

Hozirgi globallashuv davrida axborot texnologiyalari (IT) sohasi mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko`ra jamiyatni axborotlashtirish muammosini xal qilish



taraqqiyotning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanib, XXI asrda davlatlar sivilizatsiyasining yangi pog`onasiga ko`tarilishi bilan baholanmoqda. Iqtisodiyot diversifikatsiyasi va dinamikasi qanchalik yuqori bo`lsa, mamlakat ichida va tashqarisida noyob axborotlar aylanmasi shunchalik ko`p, milliy iqtisodiyotlar ichida axborot trafigi esa shu qadar salmoqli bo`ladi. Shu bois ishtirokchilar soni ko`p va IT xizmatlar keng tarqalgan bozorlarda raqamli iqtisodiyot jadal sur'atlarda rivojlanadi. Ularning rivojlanishi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, yangi ish o`rinlarini yaratadi hamda iqtisodiy o`shishni tezlashtiradi.

Axborot texnologiyalari iqtisodiyotning turli sohalarida keng qo`llanilmoqda. Masalan, bank tizimi, savdo, transport, ta`lim va sog`liqni saqlash sohalarida zamonaviy texnologiyalar xizmat ko`rsatish jarayonlarini tezlashtiradi va samaradorligini oshiradi. Ayniqsa transport, savdo, logistika va shu singari internet bilan faol ishlovchi sohalarda qo`llanilishi cheksiz qulayliklar yaratadi. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko`ra, ularda elektron segmentning ulushi YaIMning 10 foiziga yaqinlashib, 4 foiz aholi bandligini ta'minlaydi. Eng ahamiyatlisi, bu ko`rsatkichlar barqaror tarzda o`sib boradi.

Shuningdek, axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali korxonalar o`z faoliyatini yanada samarali tashkil etishi mumkin. Elektron savdo, onlayn xizmatlar va raqamli platformalar iqtisodiy jarayonlarni soddalashtiradi hamda xarajatlarni kamaytiradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, xizmat ko`rsatish sohasini kengaytirish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida korxonalar faoliyati avtomatlashtiriladi, ma'lumotlar almashinuvi tezlashadi va boshqaruv jarayonlari yanada samarali tashkil etiladi.

Rivojlangan davlatlar tajribasiga qarasa, raqamli iqtisodiyotning ulushi YAIMda juda katta. Masalan: AQShda – 10% dan ortiq, Xitoyda – 8% atrofida, Janubiy Koreyada – 9% ga yaqin, Yevropa mamlakatlarida – 7-10%. Bu davlatlarda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida yangi ish o`rinlari yaratilmoqda,



eksport hajmi oshmoqda va aholining turmush darajasi yaxshilanmoqda. O'zbekiston ham shu yo'lni bosib o'tmoqda.

Prognozlarga ko'ra, yaqin yillarda makroiqtisodiyot «lean production», additiv, nano va biotexnologiya mezonlariga tayanadigan ishlab chiqaruvchilarga qattiq bog'liq bo'lishi kutilmoqda. Shu munosabat bilan oqilona boshqaruv uchun zarur hisoblangan axborot ko'lami ham ortib boradi, ishlab chiqarish va fuqarolar muloqoti, biznes va davlat organlarini boshqarish tuzilmasi esa jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechiradi.

Axborot texnologiyasi iqtisodiy masalalarni hal qilishda quyidagi asosiy jarayonni o'z ichiga oladi:

1. Axborotni yig'ish va ro'yxatdan o'tkazish.
2. Uni qayta ishlash, joyiga uzatish.
3. Ma'lumotlarni kodlashtirish.
4. Ma'lumotlarni saqlash va izlash.
5. Iqtisodiy axborotlarni qayta ishlash.
6. Axborotni chop etish va axborotdan foydalanish.

Shu bilan birga, axborot texnologiyalarining rivojlanishi innovatsion faoliyatni rag'batlantirib, ilmiy tadqiqotlar va yangi texnologiyalarni yaratish jarayonini tezlashtiradi. Natijada mamlakatning xalqaro iqtisodiy maydondagi raqobatbardoshligi ortadi.

Xulosa qilib aytganda, axborot texnologiyalari mamlakat iqtisodiyotining samarali rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Ular ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratish va raqamli iqtisodiyot shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Raqamli iqtisodiyot – rivojlanish trendlari va xususiyatlari // <https://kun.uz/news/2020/07/06/raqamli-iqtisodiyot-rivojlanish-trendlari-va-xususiyatlari>



2. Alimov R. X. et al. Iqtisodiyotda axborot texnologiyalari //O'quv q'llanma. T.: - O'YUAJN. – 2005.
3. Akbarova S. Importance of Developing Economic Competencies in Students //Economic Development and Analysis. – T. 2. – №. 11. – C. 73-78.
4. Shohjahon A. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA UNING QO'LLANILISHI BO'YICHA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QABUL QILINGAN ASOSIY QONUN VA QARORLAR //Ustozlar uchun. – 2025. – T. 86. – №. 1. – C. 185-192.